


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 3199 ta korxonalar va tashkilotlar tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1309 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1317 ta (6,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21269 tani tashkil etgan.



O'tgan yilga nisbatan 167 ta korxona va tashkilotlar ko'p tugatilgan

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1635	1560	291
 Sanoat	4471	4345	908
 Qurilish	1650	1525	213
 Savdo	5412	4993	694
 Tashish va saqlash	820	789	142
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	908	847	118
 Axborot va aloqa	347	328	45
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	522	512	87
 Boshqa turlari	6588	6370	701



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 22353 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 24,2 % savdo, 20,0 % sanoat, 7,4 % qurilish, 7,3 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 29,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (8656 ta), Chust (1797 ta), Namangan (1570 ta) va To'raqo'rg'on (1409 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mingbuloq (864 ta), Norin (904 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1086 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning
yillar kesimida soni, birlikda**





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **21269** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1317 ta (6,6 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,5 % savdo, 20,4 % sanoat, 7,2 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaranganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (8144 ta), Chust (1701 ta), Namangan (1504 ta), To'raqo'rg'on (1320 ta) va Uychi (1309 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mingbuloq (859 ta), Norin (878 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1019 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar
kesimida soni, birlikda**

01.01.2017 y.

• 18739 ta

01.01.2018 y.

• 19952 ta

01.01.2019 y.


• 21269 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3199 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 25,3 % ga ko'pdir. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1141 ta), Chust (232 ta), Uychi (219 ta) va To'raqo'rg'on (208 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangiqo'rg'on (140 ta), Kosonsoy (165 ta) hamda Chortoq (173 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi sanoat (908 ta), savdo (694 ta), qurilish (213 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (291 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (45 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (87 ta) hamda yashash va ovqatlanish (118 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	2031	100,0	2554	100,0	3199	100,0
Savdo	701	27,9	611	23,9	694	21,7
Sanoat	558	27,5	811	31,8	908	28,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	216	10,6	302	11,8	291	9,1
Qurilish	116	5,7	132	5,2	213	6,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	101	5,0	122	4,8	118	3,7
Tashish va saqlash	114	5,6	118	4,6	142	4,4
Axborot va aloqa	35	1,7	33	1,3	45	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	40	2,0	51	2,0	87	2,7
Boshqa turlari	284	14,0	374	14,6	701	21,9

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 16975 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5652 ta, oilaviy korxonalar – 318 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10512 ta va boshqalar 493 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 138 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 34,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkiya, Xitoy va Qozog'iston Respublikalari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 96 tasi qo'shma korxonalar, 42 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (53 ta yoki jami ulushi 38,4%), Kosonsoy (13 ta yoki 9,4%), To'raqo'rg'on hamda Uychi (11 tadan yoki 8,0%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mingbuloq (2 ta yoki 1,4%), Uchqo'rg'on va Yagiqo'rg'on (5 tadan yoki 3,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 93 tani (67,4%), savdoda 15 tani (10,9%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10 tani (7,2%) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 9 tani (6,5%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 tani (0,7%), axborot va aloqada 2 tani (1,5%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tani (2,2%) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 tani (3,6%) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat

turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 42 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi va Koreya Respublikalari rezidentlari kapitali ishtirokida – 11 tadan, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikalari - 5 tadan, Isroil Davlati, Qozog'iston Respublikalari – 3 tadan yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi,

Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (24 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (9 ta), savdo (5 ta), axborot va aloqa (2 ta) va boshqa faoliyat turlari (2 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	13	76,5	24	57,1
Savdo	3	17,6	5	11,9
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1	5,9	9	21,4
Axborot va aloqa			2	4,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			1	2,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish			1	2,4



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16975 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 6,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6919 tasi (40,8 %) Namangan shahri, 1366 tasi (8,1 %) Chust, 1264 tasi (7,4 %) Namangan hamda 1043 tasi (6,1 %) Uych tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16975 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4967 tasi (29,3 %) – savdo, 4304 tasi (25,3 %) - sanoat, 1533 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1521 tasi (9,0 %) - qurilish, 843 tasi (5,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 779 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 414 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 308 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2306 tasi (13,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2709 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (1003 ta), Chust (194 ta), Uychi (188 ta) va To'raqo'rg'on tumanlari (187 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiqo'rg'on (118 ta), Mingbuloq (125 ta) hamda Pop (138 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (908 ta), savdoda (694 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (288 ta) va qurilishda (213 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (44 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (86 ta) hamda yashash va ovqatlanishda (118 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 323 tani tashkil etib, ulardan 318 tasi yoki 98,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 27,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 49,7 % yoki 158 tasi sanoat, 16,1 % yoki 51 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,6 % yoki 37 tasi savdo, 9,8 % yoki 31 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,6 yoki 2 tasi qurilish hamda 9,4 % yoki 30 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil 1 yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Tugatilgan korxona va tashkilotlar.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 1925 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan - 167 taga tugatish ko'paygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 1293 ta, 2017 yilda 1758 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2018 yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 1925 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 167 taga tugatish ko'paygan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida
dynamikasi, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Agarda tugatilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 596 tasi (31,0 %) savdo, 384 tasi (19,9 %) sanoat, 177 tasi (9,2 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 173 tasi (9,0 %) qurilish, 87 tasi (4,5 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 61 tasi (3,2 %) tashish va saqlashda, 36 tasi (1,9 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 20 tasi (1,0 %) axborot va aloqada hamda 391 tasi (20,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1758	100,0	1925	100,0	167
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	155	8,8	177	9,2	22
sanoat	222	12,6	384	19,9	162
qurilish	168	9,6	173	9,0	5
savdo	606	34,5	596	31,0	-10
tashish va saqlash	51	2,9	61	3,2	10
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	64	3,6	87	4,5	23
axborot va aloqa	22	1,3	20	1,0	-2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	225	12,8	36	1,9	-189
boshqa turlari	245	13,9	391	20,3	-146

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ulushi.**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 1742 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 594 tasi (34,1%) savdo, 382 tasi (21,9 %) sanoat, 175 tasi (10,1 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 173 tasi (9,9 %) qurilishda, 87 tasi (5,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 60 tasi (3,4 %) tashish va saqlashda, 19 ta (1,1 %)dan axborot va aloqa va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 233 tasi (13,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Pop tumanida -122 ta, Toraqo'rg'onda -85 ta, Norinda -24 ta hamda Yangiqo'rg'on tumanlarida -17 ta kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:69-227-84-96